

Hurmatli hamkasblar va do'stlar!

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) O'zbekiston Respublikasida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlovchi yetakchi texnika universiteti hisoblanadi. "Toshkent elektrotexnika aloqa instituti" Respublika Aloqa vazirligining tarmoq instituti hisoblanib, Markaziy Osiyo va Qozog'iston uchun elektraloqa va radioaloqa bo'yicha muhandislarni tayyorlagan.

Bugun TATU - bu zamonaviy tipdagi, yuqori ilmiy-pedagogik salohiyat, ta'lim kommunikatsiyalarining keng turlari, xalqaro aloqalarning rivojlangan tarmog'i, jamiyatda mutaxassislar tayyorlash darajasi bo'yicha yuqori mavqega ega bo'lgan universitetdir. Keyingi yillarda universitetda yaxshi an'analar soni ko'payib bormoqda, bakalavriatura ta'limining yangi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ochilmoqda, dissertatsiyalar himoya qilinmoqda, moddiy-texnik baza yaxshilanmoqda, yangi korpuslar qurilmoqda.

Yevropa va Osiyodagi yetakchi OTM lar bilan xalqaro hamkorlik o'rnatilmoqda. So'nggi yillarda TATU da Koreya Respublikasi va Hindiston bilan, NEC(Yaponiya) firmasi, CISCO(AQSh), HUAWEI (Xitoy), ACETECH (Buyuk Britaniya) zamonaviy o'quv markazlari ochilgan. Mazkur markazlar hozirgi kunda ham faoliyat yuritmoqda, universitetda o'qish jarayonida talabalar parallel ravishda bu markazlar zamonaviy texnikalari asosida o'z tayanch bilim(tayyorgarlik)larini boyitib bormoqdalar. Universitet eshiklari hamkorlik uchun doimo ochiq, talabalar, hamkasblar hamda do'stlarimizni ko'rishdan g'oyat baxtiyormiz.

TATU rektori